

TA'LIM – TARBIYA JARAYONIDA BOLALAR ADABIYOTI NAMUNALARIDAN UNUMLI FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Homiyatova Mavluda Amon qizi

***Annotatsiya:** Ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, va shu kabi chinakkam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, hammasining zaminida tarbiya yotadi. Bunday ulkan ishda bolalar adabiyotining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar uchun yozilgan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga to'g'ri kelishidan tashqari kichkintoylarga tushunarli va qiziqarli bo'lishi zarur. Bolalar adabiyoti pedagogika bilan mustahkam bog'langandir. Bu ikki fanning maqsad va vazifasi bir: yosh avlodga chinakam aqliy, axloqiy, estetik tarbiya berib, ularni davrimizning munosib farzandlari qilib yetishtirishdir.*

***Kalit so'zlari:** bolalar adabiyoti, tarbiya turlari axloqiy tarbiya, Gulxaniy, A.Navoiy, pedagogik jarayon, badiiy asarlar, hayotiy maishiy ertaklar*

Har bir yangi davr inson tafakkurining o'zgarishi, dunyoqarashi tushunchasida tub burilishlar ro'y berishi bilan taraqqiyot sari ilgarilab boradi. Ijtimoiy hayotdagi tadrijiy taraqqiyot, ilm – fan yutuqlari kishilik jamiyatining ma'naviy yuksaltirgani sayin o'z tarixi, qadriyatlarini, tamadduni hamda istiqboli haqidagi qarashlari kengayadi. Buning ifodasi adabiyotda xususan bolalar adabiyotida ham aks etishi tabiiy. Bolalar adabiyoti pedagogika bilan mustahkam bog'langandir. Bu ikki fanning maqsad va vazifasi bir: yosh avlodga chinakam aqliy, axloqiy, estetik tarbiya berib, ularni davrimizning munosib farzandlari qilib yetishtirishdir. Bolalar yozuvchilari o'z asarlari bilan yosh avlodning ongi, xarakteri va irodasini o'stirib, chiniqtirishda, ularni vatanparvar va mehnatsevar kishilar qilib tarbiyalashda xalqqa, mustaqil davlatimizga katta yordam berishlari kerak. Mustaqil O'zbekistonimiz oldida juda ko'p masalalar bilan bir qatorda ham jismoniy, ham aqliy jihatdan chiniqqan, ma'naviy yetuk, hayotning turli sohalarida faollik bilan ish olib borishga qodir o'qimishli kishilarni voyaga yetkazishdek buyuk ishlar turadi. O'z navbatida bunday ulkan vazifalar bolalar adabiyoti oldiga ham yuksak talablar qo'yadi. Faqat chinakam badiiy asarlarga bolalarning ongi va shuuriga kuchli ta'sir ko'rsata oladi. Shu sababli bunday kitoblar tarbiyaviy nuqtai nazardan alohida ahamiyatga egadir.

Bolalar adabiyotining yana bir xususiyati uning harakatga juda boyligidir. Bundan bolalar adabiyotida syujetga bo'lgan talab ham kelib chiqadi. U voqealarning tezkor, qiziqarli, fantaziyaga, yumorga boyligidir. Sharq yozma adabiyotida pandnoma, mav'izatnoma, nasihatnoma, axloq kitoblari singari nomlar bilan tasnif qiluvchi asarlar bolalar adabiyotining dastlabki namunalarini hisoblanadi. Kaykovusning "Mav'izatnomai Kaykovus" (Qobusnoma), Shayx Savdiyning "Guliston" va "Bo'ston", Jomiyning "Bahoriston" asarlari shular jumlasidandir. Bular tarjima vositasida o'zbek bolalar adabiyotiga kirib kelgan. Xojaning "Miftoh

ul – adl va “Gulzor”, Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “mantiq ut-tayr” va “Mahbub ul-qulub” asarlari esa o‘zbek bolalar adabiyotining mumtoz namunalari bo‘lib pand-nasihat ruhidagi maqola va hikoyalari bilan asrlar mobaynida yosh avlodni yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda.

O‘zbek xalqining ulug‘ ma’rifatparvari, mutafakkiri va buyuk shoiri Alisher Navoiy ijodida yoshlar tarbiyasiga bag‘ishlangan sahifalar nihoyatda ko‘p. U bolalarni ilm-hunarni egallashga, mehnatni sevishga undaydi, bu ilm va hunarni xalq, vatan manfaatlari yo‘lida sarf qilish zarurligini alohida uqtiradi. Navoiyning fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoyidil o‘qish, o‘rganish kerak: “Yoshligingda yig‘ mahzanin, qarigan chog‘ingda sarf qilgil ani”.

U yoshligidan o‘qishga beriladi. Bolaligidanoq ko‘p she‘rlarni yodlaydi. Jumladan, Fariddin Attorning “Mantiq ut tayr“ (Qush tili) asarini qayta-qayta o‘qib yod oladi. Alisher Navoiy davlatda yuqori martabaga erishgach, maktab va maorif ishlarini rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. U bolalarni o‘qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish va madrasalar qurishda g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi. Alisher Navoiy ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlarini badiiy asarlarida komil inson sifatida tasvirlangan ijobiy obrazlari orqali bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, ilm-fanning xislati, qudratiga juda katta baho beradi.

Badiiy adabiyot bolalarga kishilarning hayoti va mehnatlari, ishlari va qahramonliklari, bolalikdagi eng qiziqarli voqealar, ularning o‘yinlari, mehnatlari haqida hikoya qilib beradi. Badiiy adabiyot bolalarga hayotni tushuntiradi va shu orqali bola hayotiy tajribasining ortib borishiga ta’sir eradi. Badiiy adabiyot kishilarning ichki dunyosini, ularning his-tuyg‘ularini, xarakterlarini ochib berishi bilan bolalarni hayajonlanishga, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholashga va uni muhokama qilishga o‘rgatadi. Badiiy asarning eng yaxshi namunalari bolalarda axloqiy sifatlarini tarkib toptirishga yaxshi-yomon, haq-nohaq, rost-yolg‘on va h.k. so‘zlarning ma’nosini tushunib olishlariga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining oldida har bir badiiy asarni san‘at asari sifatida bolalar ongiga yetkazish, uning mazmunini ochib berish, badiiy asarda qatnashuvchi personajlarga nisbatan emotsional munosabatda boyish, muallifning lirik kechinmalarini his etishga, ya’ni asarda qatnashuvchi qahramonlarga nisbatan o‘z munosabatlarini ifodalashga o‘rgatish kabi murakkab vazifalar turadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun tarbiyachining o‘zi, bolalarni badiiy asar bilan tanishtirishdan avval, uni his etishi va tushunishi, mazmunini tahlil eta olishi zarur. Shuningdek, pedagog o‘qish va hikoya qilib berish texnikasini, ya’ni aniq diksiyani,

ifodali o‘qish vositalarini (mantiqiy urg‘uni to‘g‘ri qo‘ya olish, pauza, ovoz toni va tempi) egallagan bo‘lishi kerak.

Badiiy asarning har bir janrini ifodali tarzda bolalarga yetkaza olingandagina, asarning g‘oyaviv mazmunini to‘g‘kri idrok ettira olish mumkin. Bolalarda badiiy asarni idrok etish qobiliyati o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, uni bolaning ilk yoshidan boshlab rivojlantirish va tarbiyalash kerak, shundagina bola keyinchalik badiiy asarlarni diqqat bilan tinglashga, badiiy nutqqa e‘tibor berishga o‘rganadi. Bolalar ongiga badiiy asarlarning axloqiy, estetik mohiyatini yetkazish-bu murakkab vazifa hisoblanadi. Pedagogik rahbarlikning bir maqsadga qaratilishi bolalar tomonidan badiiy asarlaning estetik jihatlarini va ularning mazmunini, badiiy ifoda vositalarini idrok etish imkonini yaratadi. Bolalar uchun maxsus badiiy adabiyot yaratish an‘anasi jamiyat taraqqiyotining muhim ma‘naviy ehtiyoji tarzida reallikka aylangach, uning maqsadi va vazifalari aniqlasha boradi.

Badiiy adabiyot inson ruhiyatini, hatto uning shaxsiyati shakllanishi va rivojidadagi o‘rnining beqiyosligi bolalar adabiyotida ham yorqin ko‘rina boradi. Badiiy asarning mo‘jizakor ta‘sir kuchi yosh qalblarda ezgulik, vatanparvarlik, badiiy-estetik didni shakllantirish, umuman hayotga butun olamga ijobiy va ijodiy munosabatda bo‘lishga da‘vat etadi. Eng muhimi bolada insonni sevish, kasb-u koriga rag‘bat bilan qarash, shu asosda hayotni anglash va sevish tuyg‘usini ardoqlab o‘stiradi. Bu yoshdagi bolalar folklordan kengroq bahramand bo‘la boshlaydilar: tez aytishlar mashqi bilan nutq tovushlari talaffuzini ravonlashtirsalar, topishmoqlarni yechish jarayonida zehnlarni charxlay boradilar.

Hayotiy-maishiy ertaklarni o‘qish jarayonida real hayot hodisalariga qiziqishlariga uyg‘ona boradi. Ertakka bu xildagi ma‘naviy chanqoqlik turli xalqlar ertaklarini ham shuningdek yozma adabiy ertaklarni ham sevib o‘qishga chog‘laydi. Maqol, masal, matal, zarbulmasal, hikmatli so‘z, tanbeh, donolar yoki donishmandlar so‘zi, oqinlar so‘zi va otalar so‘zi atamalari bilan el orasida yurgan bu janr namunalari g‘oyat ommaviy bo‘lib, umumfolklor hodisasi hisoblanadi. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki ma‘lum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tug‘iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm bo‘lib yuzaga keladi.

Ertak umumfolklor hodisasi sifatida eng qadimiy epik janrlardan bo‘lib M.Qoshg‘ariy o‘z “Devonu lug‘oti turk” asarida turkiy xalqlarda uning yetuk atamasi bilan yuritilganini qayd etadi. Ertaklar xalq og‘zaki badiiy ijodining epik turiga mansub bo‘lib, o‘ziga xos g‘oyaviy-mavzuviy yo‘nalishga, axloqiy-ta‘limiy va ijtimoiy-estetik vazifalarga ega. Ertaklar ham og‘zaki tarzda jamoa ijodi mahsuli sifatida anonim ko‘rinishda yaratiladi. Ertaklar, asosan professional ijrochilikka

asoslanadi. Kishilarda cheksiz badiiy zavq uygʻota olish imkoniyatiga egaligi boisidan koʻp hollarda taʼlimiy-tarbiyaviy maqsadlarga aytiladi. Maishiy-hayotiy ertaklarning mazmuni bevosita real hayotga bogʻliqdir. Ularda real ijtimoiy voqelik hayotiy uydirma asosida tasvirlanadi, hayotiy real kishilar bosh qahramon boʻlib keladi. Maishiy-hayotiy ertaklar ayrim hollardagina fantastik detallar uchrashi mumkin. Hajviy-maishiy ertaklar asosida oʻtkir satira yoki zavqbxash kulgi (yumor) yotadi. Bunday ertaklar hajman ixcham, mazmunan loʻnda boʻladi.

“Ertaklar hech vaqt bekorchi, ermak narsalar emas-deb yozgandi ulugʻ adib Muxtor Avezov ular hamma vaqt zoʻr ijtimoiy va tarixiy ahamiyatga egadirlar. Bahaybat maxluqlar haqida hikoya qiluvchi ertak va afsonalar hamda bu boy janrning boshqa turli koʻrinishlarida u yoki bu davrning ijtimoiy, hayotiy kurashlari, xalq manfaatlarini badiiy ifodasini topgandir”. Ularda ajdodlarimizning yashash va kurash sabogʻi ifodalangan. Ertaklar xalqning necha-necha ming yilliklar davomidagi hayotiy tajribalarini umumlashtirgan holda uning ijtimoiy ongida, estetik didida, axloqiy qarashlarida, eʼtiqodida kechgan oʻsish-oʻzgarishlarning badiiy tarixi sifatida ayri-ayri ahamiyat kasb etgan. Shu bois hozir ham miriqib tinglanadi, sevilib oʻqiladi. Muhimi, navqiron avlodning maʼnaviy-axloqiy kamol topishida ham ertaklar beqiyos taʼsir koʻrsatib kelmoqda. Sehrli-fantastik ertaklar ming yillar davomida insoniyatning turli yovuz kuchlariga qarshi olib borgan kurashlari davomidagi xulosalari, ulardan kelib chiqadigan ehtiyojlarning oʻziga xos yechimi sifatida maydonga kelgan. Inson doimo xayoliy orzu-istaklar bilan yashaydi. Bunday orzu-istaklarning roʻyobini sehrli-fantastik ertaklarda koʻrish mumkin. Bu ertaklarda uchadigan otlar va gilamlar, soʻylaydigan jonzotlar, sehrigar kampirlar, devlar, osmonda, yer va suv ostida yashaydigan odamlar va boshqalar ishtirok etadilar. “Ur toʻqmoq”, “Zumrad va Qimmat”, “Yoriltosh” kabi ertaklar shular jumlasidandir. Bolalar adabiyoti fani bolalarni imon-eʼtiqodli, vatanparvar shaxs etib tarbiyalashda muhim vositasidir. Kichkintoylarga atab yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos boʻlishi, ular qalbida chuqur oʻy-fikrlar uygʻotishi, yorqin obrazlar va yuksak gʻoyalarga boy boʻlishi, ularni ulkan va porloq ishlarga ilhomlantirishi zarur.

Bu davr adabiyotida tasvirlanayotgan inson oʻzining bashariyat, vatan, el–yurt oldidagi masʼuliyatini chuqur his etgan holda namoyon boʻlmoqda. Istiqlool adabiyoti mavzu nuqtai nazaridan ham, badiiy tasvir tamoyillari jihatidan ham ilgari qoliplarga sigʻmaydigan, tabiiy ravishda rivojlanayotgan yangi estetik hodisadir. U odamlarga yoʻl koʻrsatishni zimmasiga olmaydi, oʻquvchiga aql oʻrgatmaydi, hayotiy muallimlikni daʼvo qilmaydi, balki tasvirning nozikligi, ifodalarning favqulotddaligi, obrazlarning kutilmaganligi bilan oʻquvchida munosabat uygʻotadi.

Ma'lumki, inson komillikka yetishishi uchun ma'naviy dunyo qarashi keng bo'lishi, odobli, bilimli bo'lishi bilan birga kattalarning pand-nasihatlariga astoydil e'tiborli bo'lishlari talab etiladi. Bolalar adabiyoti fani bolalarni imon-e'tiqodli, vatanparvar shaxs etib tarbiyalashda muhim vositadir. Kichkintoylarga atab yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos bo'lishi, ular qalbida chuqur o'y-fikrlar uyg'otishi, yorqin obrazlar va yuksak g'oyalarga boy bo'lishi, ularni ulkan va porloq ishlarga ilhomlantirishi zarur. Eng muhimi mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda yoritilishi lozim. Faqat chinakam badiiy asarlarga bolalarga kuchli ta'sir ko'rsatib, ana shu talablarga javob bera oladi. Shu sababli bunday kitoblar pedagogik-psixologik nuqtai nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bolalar adabiyoti bu vazifani bajarishda badiiy tilga suyanadi. Adabiy asarning tili uning g'oyaviy mazmunini aniq va ifodali ochib berish vositasidir. Yaxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxonlarga tez va oson yetkazadi. Kitob xalqimizning o'tmishi, ilg'or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr tuyg'ularini o'stiradi.

Bolalar adabiyoti deganda yozuvchilar tomonidan ularga mo'ljallab yozilgan maxsus asarlarni tushunamiz. Shuningdek, katta yoshdagilarga atalgan, biroq bolalar ma'naviyatini boyitadigan, ularga ma'rifiy-estetik zavq berishi mumkin bo'lgan asarlar ham bolalar kitobxonligini tashkil etadi. Ijtimoiy ong shakllari, mafkuraviy ishning barcha sohalari kabi, bolalar adabiyoti ham voqelik bilan hayotdagi turli ijtimoiy hodisalar hamda insoniyat turmushi bilan bog'liq bo'lib, ularni o'ziga xos vositalarda badiiy aks ettiradi.

Bolalar adabiyotida aks ettirilgan voqeliklar hayotiy, haqqoniy tasvirlanish hamda ularning ruhiyatiga, ongiga mos, tushunarli va qiziqarli bo'lishi kerak. Shunga ko'ra, bolalarga atalgan badiiy asarlar ularning xarakter xususiyatlarini to'la namoyon qilishi bilan bir qatorda pedagogika va psixologiya fanlari bilan uzviy aloqada bo'lishi, demakki, muayyan ma'rifiy-estetik g'oyani ilgari surish lozim. Bolalar adabiyotining yana bir muhim xususiyati uning pedagogika bilan mahkam bog'langanligidadir.

Bolalar adabiyoti talablari bilan birga pedagogika talablariga ham alohida e'tibor berilishi lozim. Ana shu talablar asosida yaratilgan g'oyaviy-badiiy yuksak asarlar bolalar uchun eng qimmatli kitoblar hisoblanadi. Zero pedagogika bilan bolalar adabiyotining maqsad va vazifalari mushtarak: yosh avlodga chinakam aqliy-axloqiy estetik va jismoniy tarbiya berishdir. Bolalar yozuvchilari bolalarga mos, ularni qiziqtiradigan va ulkan ishlarga otlantiradigan asarlar yozib, yorqin,

kuchli badiiy obrazlar yaratib, yosh avlodning ongi, xarakteri va irodasini o‘stirib chiniqtirishda va har qanday qiyinchiliklarni yenga oladigan, mehnatsevar kishilar qilib tarbiyalashda xalqqa, davlatimizga katta yordam berishlari kerak.

Kitob bolalarga hayotni o‘rgatuvchi haqiqiy muallim bo‘lishi uchun ularning kitobxonligini to‘g‘ri tashkil qilish kerak. Bolalarni kitob tanlashga, muntazam ravishda o‘qish o‘rgatish lozim. O‘qilgan kitoblar yuzasidan o‘qituvchining rahbarligida turli mulohazalar, muhokamalar, kitobxonlar konferensiyasi o‘tkazib turish katta foyda keltiradi. O‘qituvchi va tarbiyachilarning bolalar adabiyotidan foydalana bilishlari, maktabda va bog‘chada ta‘lim-tarbiya ishlarining sifat va samarasini yanada yuqori darajaga ko‘tarishi, o‘quvchilarning badiiy kitoblarga bo‘lgan muhabbatini oshirish ishlarini yaxshilash vositalaridandir.

Bolalar adabiyotini kengroq targ‘ib qilish ularni adabiyotga qiziqtirish maktabgacha ta‘lim tashkilotlari pedagog xodimlarning, ota-onalarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ota-ona bilan hamkorlik qilish bolalarni rivojlanishi uchun keng imkoniyatlardan to‘laonli foydalanish kerak. Bolalar asosan oilada ko‘p vaqtlarini o‘tkazishadi oila ta‘lim va tarbiya poydevori hisoblanadi. Oiladagi muhit ilmga yo‘naltirilgan bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ma‘lumki, bugungi yosh avlod tarbiyasidagi, ularning har tomonlama yetuk insonlar bo‘lib yetishuvida qudratli qurol bo‘lgan adabiyot fanining o‘rni beqiyosdir. Chunki badiiy asar vositasida o‘quvchining dunyoqarashi shakllanib, xarakteri tarbiyalanib boradi. Yosh avlod kitob vositasida xalqimiz, vatanimizning o‘tmishi bilan tanishadi, buyuk ajdodlar qoldirgan bebaho merosdan bahramand bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kitobxonligidagi o‘zaro farq bolalarning yoshi, bilimi, saviyasi bilan bog‘liq. Maktabgacha yoshdagi bolalar, asosan, tarbiyachilari, ota-onalari yordamida badiiy asarlar bilan tanishadi. Bu yoshdagi bolalarni tevarakatdagi turli voqea-hodisalar nihoyatda qiziqtiradi. Ularning bizni qurshagan olam haqidagi savollariga badiiy asarlarda mufassal javob berilgan. Bu davr bolalariga tavsiya etiladigan asarlarning harflari yirik-yirik bo‘lib, rasm va bo‘yoqlarga boy bo‘lishi talab etiladi.

Bu davr bolalar kitobxonligida kichkintoy, albatta, bajarishi zarur bo‘lgan mas‘uliyat bor. Masalan, ota-ona, tarbiyachi topshirig‘ini so‘zsiz ado etish, namunali o‘qish, yurish-turishda o‘zgalarga ibrat bo‘lish, ona-Vatanni sevish va boshqalar. Bolalar adabiyoti o‘ziga xos xususiyatlari bilan kattalar adabiyotidan farq qiladi. Bolalar yozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavvuri, tushunchasini nazarda tutib tasvirlaydi. Shu orqali kichkintoylarni olg‘a intilishga chaqiradi, hayotni chuqur sevishga yordam beradi. Bolalar adabiyotida didaktika ohangi ustun

turadi. Ma'lumki, og'zaki adabiyot yozma adabiyot paydo bolmasdan ilgari, uzoq o'tmishdayoq mavjud bo'lgan. Bu adabiyot xalq badiiy kamoloti va ma'naviy boyligining bitmas-tuganmas xazinasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.2020.23.09
2. O'zbekiston Respublikasining 2019- yil 16- dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonuni
3. Kazakova, T.G. Maktabgacha yoshdagi bolalarning vizual faoliyati va badiiy rivojlanishi - M.: Pedagogika, 1985 yil
4. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti Toshkent "Innovatsiya-Ziyo" 2020
5. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti T. "O'qituvchi"-2008y. 152 bet
6. Kiyikbayev F.Q. Bolalar adabiyoti. Andijon. 2020
7. <https://nsportal.ru/detskiy-sad/raznoe/2020/09/09/rol-hudozhestvennoy-literatury-vo-vsestoronnem-vospitanii-detey>

